

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan
2025-yil III choragida amalga oshirilgan nazorat tadbirlari natijalari to'g'risida
hisobot

2025-yilning oktyabr oyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ta'lim tizimida maishiy korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha navbatdagi nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Mazkur o'rganishlar O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda tashkil etilib, Xorazm viloyatidagi oliy va kasbiy ta'lim muassasalarini qamrab oldi.

O'rganish davomida o'quv jarayonini tashkil etish, baholash va bitiruv jarayonlarining shaffofligi, axborot tizimlaridan foydalanish holati hamda komplaens-nazorat bo'limlari faoliyati tahlil qilindi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, ta'lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilgani korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilayotgani qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim texnikumlarda baholash jarayonida inson omiliga bog'liq kamchiliklar va nazorat mexanizmlarining sustligi aniqlangan.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan talabalar bahosini sun'iy oshirish, amaliy imtihonlarda subyektiv yondashuv kabi holatlar qayd etilgan. Mazkur kamchiliklar bo'yicha mas'ul rahbarlarga qonunchilik doirasida tegishli choralar ko'rish topshirildi.

Vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi "komplaens-nazorat" tizimlarini kuchaytirish, yakuniy baholash jarayonida "blind assessment" usulini joriy etish, shuningdek, talabalarda huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni davom ettirish belgilab olindi.